



YOSH O'QITUVCHILARNING KASBIY MAHORATINI OSHIRISH VA INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH IMKONIYATLARI

Shonazarov Jamol Umirzoqovich,

Xalqaro innovatsion universiteti

Psixologiya va jismoniy madaniyat kafedrası mudiri, dotsent



OPPORTUNITIES FOR ENHANCING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF YOUNG TEACHERS AND PREPARING THEM FOR INNOVATIVE PEDAGOGICAL ACTIVITY

Shonazarov Jamol Umirzoqovich,

Associate Professor,

Head of the Department of Psychology and Physical Education International Innovative University

E-mail: jshonazarov1331@gmail.com

Orcid: 0009-0003-3812-3997

Doi:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18310150>

ВОЗМОЖНОСТИ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО МАСТЕРСТВА МОЛОДЫХ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ И ИХ ПОДГОТОВКИ К ИННОВАЦИОННОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Шоназаров Джамол Умирзакович,

заведующий кафедрой психологии и физической культуры, доцент

Международный инновационный университет

Annotatsiya. *Mazkur maqola o'qituvchi faoliyatiga qo'yilgan zamonaviy talablar, bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining o'ziga xos pedagogik, psixologik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan.*

Shuningdek, o'qituvchi faoliyatida o'quv jarayonini tashkil etishga psixologik - texnologik, metodik va ijodiy jihatdan tayyorlik ko'rishda innovatsion yondashuvga asoslanishning ustuvor masalalari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *pedagogik jarayon, pedagogik faoliyat, innovatsiya, innovatsion faoliyat, pedagogik mahorat, kreativlik, ijodiy yondashuv, pedagogik texnologiya, innovatsion ta'lim, innovatsion infratuzilma, innovatsion yondashuv.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются современные требования к деятельности учителя, специфические педагогические и психологические особенности процесса подготовки будущих учителей к инновационной профессиональной деятельности.*

Также в ней обозначены приоритетные вопросы обоснования инновационного подхода на основе психологической, технологической, методической и творческой готовности учителей к организации образовательного процесса.

Ключевые слова: *педагогический процесс, педагогическая деятельность, инновации, инновационная деятельность, педагогические навыки, креативность, творческий подход, педагогические технологии, инновационное образование, инновационная инфраструктура, инновационный подход.*



Annotation. *This article discusses the modern requirements for teacher activity, the specific pedagogical and psychological characteristics of the process of preparing future teachers for innovative professional activity.*

It also outlines the priority issues of basing an innovative approach on the psychological, technological, methodological and creative readiness of teachers to organize the educational process.

Keywords. *pedagogical process, pedagogical activity, innovation, innovative activity, pedagogical skills, creativity, creative approach, pedagogical technology, innovative education, innovative infrastructure, innovative approach.*

KIRISH

Yosh avlodni zamonaviy dunyo talablari darajasida o‘qitish hamda tarbiyalash ko‘p qirrali vazifani faqat yuksak malaka va pedagogik mahoratga ega bo‘lgan o‘qituvchilar amalga oshiradilar. Zamonaviy o‘qituvchiga kasbiga mos, ya‘ni sog‘lom avlod uchun haqiqiy murabbiy bo‘lish ishtiyoqi zo‘r, zamon talablarini tez hamda chuqur tushunadigan, o‘zining ilmiy, ijtimoiy-siyosiy saviyasi, pedagogik mahoratini izchillik bilan amalga oshirib boruvchi insonlargina bo‘lishi zarur.

Zamonaviy o‘qituvchining asosiy maqsadi yosh avlodni ma‘naviy axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma‘naviy – tarixiy an‘analarga, urf – odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali, tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etishdir. O‘qituvchi yosh avlodni har tomonlama kamolga yetkazishda pedagogik jarayonda foliyatning individual uslubi kabi yig‘ma ko‘rsatkichlar, jumladan individual faoliyat uslubidan ham foydalanadilar. Bugungi kunda ta‘lim sohasida yangi ilmiy yo‘nalish - ta‘limiy innovatsiya va ta‘lim jarayonini yangilash g‘oyalarining paydo bo‘lishi natijasida ta‘limiy faoliyatda ham yangi yo‘nalish “innovatsion faoliyat” tushunchasi paydo bo‘ldi.

Hozirgi vaqtda ta‘limdagi innovatsion harakatlarning xususiyatini o‘rganmagan, ta‘lim sohasidagi innovatsion faoliyatning mohiyatini tushunmaydigan, innovatsion ta‘lim texnologiyalarini keng egallamagan o‘qituvchini zamonaviy pedagog, raqobatbardosh kadr, yetuk mutaxassis deb hisoblab bo‘lmaydi. Innovatsion faoliyat - pedagogning o‘z kasbini mukammallashtirish va uni takomillashtirishdagi mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashida ijodiy yondashuvini nazarda tutadi. Ta‘limdagi innovatsiyalar va innovatsion ta‘limiy faoliyat mukammal tarkib topmagan shu bilan birga aniq bir to‘xtamli bo‘lmagan ilmiy faoliyat ekanligini e‘tirof etish lozim [1]. Buning asosiy sabablaridan biri ta‘limiy bilim va amaliy ta‘limiy faoliyat o‘rtasidagi uzilishdir. Pedagog innovatsion faoliyatning subekti va tashkilotchisi sifatida yangilikni yaratish, uni faoliyatda qo‘llay olish hamda targ‘ibot etishda ishtirok etar ekan, faoliyatning samaradorligi va natijadorlikni anglamog‘i,



fundagi bilim, an'analardagi o'zgarishlar mazmunini va mohiyatini tahlil eta bilishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA ADABIYOTLARNING TAHLILI.

Pedagogik jarayonda zamonaviy o'qituvchi faoliyatini tahlil qilar ekanmiz, innovatsiya va o'qituvchining faoliyati bir-biri bilan uyg'unlashib, pedagogik jarayonda ijodkorlikka asoslanadi va kasbiy mahoratga erishishda muhim omil hisoblanadi. Shu boisdan innovatsion faoliyat tushunchasi innovatsiya, innovatsion jarayon, ijodkorlik, kreativlik kabi tushunchalar bilan chambarchas boq'liq. Shuning uchun bu tushunchalar mazmunini izohlamasdan turib, innovatsion faoliyat mazmunini anglash mumkin emas. Bugungi kunda ta'lim tizimidagi an'anaviy va ommaviy ko'rinishdagi o'quv-tarbiya jarayonlari o'rniga ta'lim muassasalari rivojlanishida o'ziga xos yangilik sifatida innovatsion jarayonlar kirib kelmoqda.

“Innovatsion ta'lim” deganda, odatda, o'quv-tarbiya jarayoniga foydali, samarali yangiliklar olib kirish tushuniladi. Shuning uchun ta'lim tizimida innovatsiya - o'zgartirish bilan bevosita bog'liq. Bunday o'zgartirishlar ta'lim tizimining maqsadi, mazmuni, metodologiyasi, tashkil etish shakli, boshqaruv tizimiga, pedagogik faoliyatda o'quv-bilish jarayonini tashkil etish, ta'limni nazorat qilish va baholash tizimiga, uning o'quv-metodik ta'minoti, tarbiyaviy ishlar tizimiga hamda o'quvchi va o'qituvchi faoliyatiga bevosita bog'liq [2]. Mana shunday ta'lim islohotlari jarayonida pedagogning innovatsion faoliyati xususida bir qancha tadqiqotlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda rivojlanib borayotgan innovatsion siyosat ta'lim oldiga muhim va mas'uliyatli vazifalarni qo'ymoqda. Ana shu maqsadlar asosida ta'lim sohasi bo'yicha mamlakatimizda birinchilardan bo'lib faol innovatsion harakat boshlandi.

Zamonaviy ta'limga xos muhim jihatlardan biri – pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish sanaladi. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda pedagog faoliyatining innovatsion xarakter kasb etishiga erishish masalasi o'tgan asrning 60-yillaridan boshlab jiddiy o'rganila boshlagan. Xususan, X.Barnet, J.Basset, D.Gamilton, N.Gross, R.Karlson, M. Maylz, A.Xeyvlok, D.Chen, R.Edem, F.N. Gonobolin, S.M. Godnin, V.I.Zagvyazinskiy, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina hamda V.A.Slastenin kabi tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ishlarda innovatsion faoliyat, pedagogik faoliyatga innovatsion yondashish, innovatsion g'oyalarni asoslash va ularni amaliyotga samarali tadbiq etish, xorijiy mamlakatlar hamda mamlakatimizda yaratilgan pedagogik innovatsiyalardan xabaror bo'lish orqali pedagog faoliyatida ulardan faol foydalanish borasidagi amaliy



natijalarga erishilmoqda. Shu bilan birga, o'sha vaqtda ishlab chiqilgan innovatsion ta'lim texnologiyalari: dialektik o'qitish usullari (A.I.Goncharuk, V.L.Zarina), o'qitishning individual yo'nalishli usuli (A.A.Yarulov), "Ekologiya va dialektika" (L.V.Tarasov), evristik o'qitish (A.V.Xutorskoy) dialog madaniyati (V.S.Bibler, S.Y.Kurganov), loyihali, o'z-o'zini refleksiya (G.P.Shedrovitskaya) va boshqalarni keltirish mumkin.

Mazkur texnologiyalar o'qitishda o'zlashtirishni yuqori ko'tarish, o'quv jarayonida qiziqtirishni, o'quv materialini tushunishni yaxshilashni, funksional va loyihali savodxonlikni shakllantirish, nazariy, ekologik va iqtisodiy tafakkurni o'stirish, kommunikativlik, ijtimoiy faollikni oshirish, o'z-o'zini anglashga o'rgatib borish va boshqa vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan edi. Bugungi kunda barcha faoliyat sohalari, jumladan, qishloq xo'lagi, texnika, ishlab chiqarish rivojlanishning innovatsion yo'liga o'tgach, ta'lim sohasi ularga raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash funksiyasini bajarishi uchun ham pedagogik jarayonda innovatsion yondashishni talab etmoqda.

NATIJALAR.

Innovatsion faoliyat - maksimal maqsadli natija olishga qaratilgan, ta'limiy jamoani harakatga keltiruvchi kuchdir. Innovatsiya esa tizimli, yaxlit va davomli bo'lib, faoliyatni loyihalaydi, yangicha yo'nalishlarni, yangi texnologiyalarni yaratib, faoliyatga qo'llab yangi sifat natijalariga erishishni ko'zlaydi. Innovatsion ta'limiy faoliyatda qo'llanadigan har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Qachonki ma'lum yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi aynan tizimni rivojlantirishga va takomillashtirishga yoki uning o'zgarishiga, olib kelsagina, uni innovatsiya deyish mumkin.

Innovatsion faoliyat ta'limiy jarayondagi har qanday vaziyatdagi muammolarni hal etish uchun qulay jarayon bo'libgina qolmay, sifat samaradorlikni yaxshilashga qaratilgan pedagogning harakat tizimi hisoblanadi. O'z navbatida bu tizim amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib jamiyatning barcha jabhalari uchun zamonaviy va ijodkor, salohiyatli mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydi [3]. Amaliyot va nazariyada innovatsion ta'limiy faoliyatining bosh masalasi esa pedagogning ta'limiy jarayonni samarali va natijadorli tashkil eta olishidan iboratdir.

Innovatsion faoliyat - uzoq vaqt davomida uzluksiz ravishda yangiliklar asosida ishlash evaziga shakllanadi va takomillashib boradi. Innovatsion faoliyatning harakatga keltiruvchi pedagog jarayonni tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan o'rinli foydalana bilmog'i lozim. Pedagogik texnologiya ta'lim berishda qo'llaniladigan interfaol usullar va vositalar, rejalashtirilgan ta'lim natijalariga



erishish uchun maqsadlar majmuasidir. Pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, shuningdek pedagog faoliyatiga kreativ yondashish va o'zgartirishi orqali ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar bevosita amalga oshiriladi. Pedagoglarning innovatsion faoliyatga tayyorligi innovatsion jarayonlar dinamikasining o'sib borishiga sabab bo'ladi.

MUNOZARA.

Ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarga asoslangan innovatsion faoliyat o'quv-tarbiya jarayonida samaradorlikka erishishda muhim omil bo'lsada ayni paytda innovatsion faoliyat bo'yicha bir qator kamchiliklar mavjudligini qayd etish joiz. Birinchidan, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun mas'ul vazirlik va idoralar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik lozim darajada emas, ilmiy-tadqiqot muassasalar va laboratoriyalar faoliyati lozim darajada muvofiqlashtirilmaganligi; ikkinchidan, ilmiy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish past darajada ekanligi; uchinchidan, innovatsion menejment sohasida texnologiyalar transferini faol ilgari surish va amalga oshirishga qodir yuqori malakali mutaxassislarning yetishmasligi; to'rtinchidan, ilmiy va innovatsion faoliyatni davlat tomonidan moliyalashtirish samarali va shaffof emas, budjetdan tashqari va xususiy jamg'armalar mablag'larini jalb etishni rag'batlantirish mexanizmlari mavjud emasligi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish borasida Respublikada innovatsion faoliyatni rivojlantirish va rag'batlantirishning huquqiy meyoriy asoslari yaratildi. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida"gi Qonuni (24.07.2020 y., O'RQ-630), 2019 - 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasi (21.09.2018 y. PF-5544-son), O'zbekiston Respublikasining "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi Qonuni (29.10.2019 y., N O'RQ-576) kabi huquqiy meyoriy hujjatlarning ishlab chiqilishi mamlakatimizda innovatsion infratuzilma, innovatsion loyiha, innovatsion faoliyatning takaomillashuvi uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Shuni alohida takidlash lozimki, yurtimizda innovatsion jarayonlarni rivojlanishi natijasida innovatsion infratuzilmaga ehtiyoj sezildi. Innovatsion infratuzilma - innovatsion faoliyatni moddiy-texnik, moliyaviy, tashkiliy-uslubiy, axborot, konsultativ va boshqa jihatdan ta'minlaydigan tashkilotlar, muassasalar, mulkchilikning istalgan shaklidagi birlashmalarining majmuidir.

So'nggi yillarda mamlakatimizda barcha sohalar kabi ta'lim sohasida ham innovatsion infratuzilma shakllantirildi. Mazkur infratuzilmani shakllanganligini bevosita ta'lim turlaridagi o'zgarishlarda ko'rishimiz mumkin. Bu o'zgarishlar esa o'z navbatida pedagoglar tomonidan innovatsion faoliyat bo'yicha ko'nikma,



malakalarining o'zlashtirilishi ularda innovatsion yondashuvni qaror topishiga xizmat qiladi hamda innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, o'zgarishlar, moslashtirishlar ta'lim jarayoniga kirib keladi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, pedagogning innovatsion faoliyati ko'plab yangi g'oyalarning, innovatsion loyihalarning ishlab chiqilishi va yaratilishini ta'minlaydi, shuningdek, ushbu jarayonni boshqarish tizimini shakllantiradi. Innovatsiyalarni loyihalash jarayoni pedagoglarning innovatsiyalarni amalga oshirishga bo'lgan tanqidiy va ijodiy fikrlashlariga bo'lgan ehtiyojni belgilaydi. Demak, innovatsion faoliyat yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy meyorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan meyorining yuzaga kelgan meyor bilan to'qnashuvchi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni yechishga yo'naltirilgan faoliyat sanaladi. U shaxsning, xususan, pedagogning innovatsion jarayonni tashkil etishga tashkiliy - texnologik, metodik va ijodiy jihatdan tayyorligi hisobiga tashkil etiladi. Pedagogik innovatsiyalarning izchil ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklarni olib kirishga imkon berish orqali ta'lim tizimi yoki jarayoni muntazam rivojlanib boradi [4]. O'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi hamda u ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu bois har bir o'qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushungan holda o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olsa ta'lim jarayoni ham sifat ham samaradorlik nuqtai nazardan taraqqiy etadi. Bu esa o'z navbatida ta'lim tizimining rivojini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: 2013 y. -279 bet.
2. Muslimov N.A., Mutalipova M.J., Abdullayeva Q.M. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Metodik qo'llanma. –T., 2014.
3. Tolipov O'.Q.,M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari T. "Fan" nashriyoti, 2006 yil.
4. Shonazarov J.U. O'quv mashg'ulotlarida pedagogning innovatsion faoliyati va kreativ yondoshuvi. "Sanoat va qishloq xo'jalik tarmoqlarida ekologiya va mehnat muhofazasi muammolari" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Buxoro- 2023 yil 19-20 oktabr, 255-258 betlar.